



**DAVLATNING KELIB CHIQISH NAZARIYALARI HAMDA TARIXIY VA
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TAHLILI**

Muxammadova Marjona Zavqiy qizi

O'zbekiston Milliy universiteti,

Yurisprudensiya: Biznes huquqi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlatning kelib chiqishi bilan bog'liq asosiy nazariyalar – patriarxal, shartnoma, zo'ravonlik, psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy huquqiy yondashuvlar hamda zamonaviy nazariyalar yoritilgan. Har bir yondashuv tarixiy sharoitda shakllangan g'oyaviy asoslari, afzallik va zaif tomonlari bilan tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, zamonaviy global muammolar fonida davlat tushunchasining qayta talqin qilinishi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Davlat, nazariya, kelib chiqish, zamonaviy yondashuv, ijtimoiy kelishuv, zo'ravonlik nazariyasi, tarixiy taraqqiyot*

Abstract: *This article examines the main theories concerning the origin of the state, such as patrimonial, contract, force, psychological, socio-economic, and natural law approaches. Each theory is analyzed in terms of its historical context, theoretical basis, strengths, and weaknesses. The article also discusses the reinterpretation of the concept of the state in light of modern global challenges.*

Keywords: *State, theory, origin, modern approach, social contract, theory of force, historical development*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются основные теории происхождения государства, включая патримониальную, договорную, теорию насилия, психологическую, социально-экономическую и теорию естественного права. Каждая теория анализируется с точки зрения исторического контекста, идейной основы, сильных и слабых сторон. Также обсуждается переосмысление понятия государства в условиях современных глобальных вызовов.*

Ключевые слова: *Государство, теория, происхождение, современный подход, общественный договор, теория насилия, историческое развитие*

Kirish. Davlat – insoniyat tarixida yuzaga kelgan eng muhim va murakkab ijtimoiy-siyosiy institutlardan biri bo'lib, uning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, mazmun-mohiyati va jamiyatdagi roli haqida qadimdan hozirgacha turli fikrlar va qarashlar mavjud. Davlat nafaqat siyosiy hokimiyat shakli, balki ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirib turuvchi muhim tizim sifatida ham qaraladi. Insoniyat taraqqiyoti davomida davlat tushunchasi doimo o'zgarib, yangilanib kelgan. Shu bois, davlatning paydo bo'lishi masalasi har bir davrda dolzarb ilmiy va amaliy muhokama obyekti bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda murakkab siyosiy tashkilot bo'lgan davlatning kelib chiqish tarixi muhim



ahamiyat kasb etgani sababli, uning tarixiy va zamonaviy yondashuvlari chuqur tahlil qilib o'rganilmoqda.

Qadimda davlat tabiat in'omidek ko'rilgan bo'lsa, o'rta asrlarda u ilohiy kuchlar irodasi bilan bog'langan tarzda tushuntirilgan. Uyg'onish davridan boshlab esa inson va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar asosida shakllangan deb hisoblangan. Yangi davrga kelib, davlatning kelib chiqishini turli jihatlar – iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va siyosiy nuqtai nazardan izohlovchi nazariyalar shakllandi. Ayniqsa, patriarxal, ijtimoiy shartnoma, zo'ravonlik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy nazariyalar ushbu mavzuga oid ilmiy qarashlarning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi.

Zamonaviy yondashuvlarda esa davlat tushunchasi endilikda faqat hukmronlik qilish yoki qonun chiqarish bilan bog'liq emas, balki fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish, raqamli boshqaruvni yo'lga qo'yish kabi ko'plab murakkab vazifalarni o'z ichiga oladi. Bugungi globallashtirish sharoitida davlatning vazifalari kengayib, uning shakli va faoliyat yuritish uslublari ham yangicha talqinda ko'rib chiqilmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, elektron boshqaruv kabi yangi hodisalar davlat nazariyasiga zamonaviy yondashuvlarni talab qilmoqda.

Mazkur maqolada davlatning kelib chiqishi bilan bog'liq asosiy nazariyalar har tomonlama tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tarixiy yondashuvlar zamonaviy davrda qanday o'zgacha mazmun kasb etayotganiga e'tibor qaratiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – davlatning shakllanishiga oid nazariyalarni faqat tarixiy fakt sifatida emas, balki bugungi davlat tuzilmalarini to'g'ri tushunish va baholashga xizmat qiladigan nazariy asos sifatida o'rganishdan iboratdir.

Davlat – majbur qilish kuchiga, ya'ni hokimiyatga ega bo'lgan, o'z fuqarolari, shuningdek, hududida istiqomat qiluvchi barcha insonlarning manfaatlarini himoya qiladigan, boshqa davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni amalga oshiradigan mustaqil siyosiy tashkilotdir.³³

Davlatning zamonaviy ko'rinishiga ta'rif beradigan bo'lsak, davlat ommaviy-siyosiy hokimiyatning suveren-siyosiy tarzda hududiy tashkillashtirilganligi bo'lib, u maxsus apparat vositasida o'z azmu irodasini butun mamlakat uchun majburiy e'tirof ettira oladi. Davlat – jamiyatning yagonaligi va yaxlitligini ta'minlaydigan siyosiy tashkilot bo'lib, maxsus mexanizm (apparat) vositasida jamiyat ishlarini boshqaruvchi suveren ommaviy-siyosiy hokimiyat sifatida huquqqa umumiy majburiy xususiyat baxsh etadi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, qonuniylik va huquqiy tartibotni kafolatlaydi.³⁴

Davlat birdaniga yuzaga kelmaydi, balki asta-sekin, vujudga kelayotgan sinflar o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayishi davomida paydo bo'ladi. Insoniyat davlat paydo bo'lguniga qadar o'z taraqqiyotida uzoq yo'lni bosib o'tgan. Davlat hali urug'chilik tizimi ishidayoq shakllangan boshqaruv organlarini qisman o'zgartirib qisman yangi organlarni

³³ "O'zbekiston davlati va huquq asoslari" darslik "Huquq va Jamiyat" nashriyoti Toshkent – 2019. 23-b.

³⁴ Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 69-70- betlar





joriy etgan holda siqib chiqarib yuzaga keladi va nihoyat, ularni haqiqiy davlat hokimiyati bilan almashtiradi. Mehnat qurollarining rivojlanishi va takomillashishi, yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti mehnat unumdorligi oshib, ortiqcha mahsulot hosil bo'lgan, bu esa xususiy mulkchilik va jamiyatning mulkiy jihatdan qatlamlarga ajralishiga olib kelgan. Shu tariqa, asosiy mashg'uloti xususiy mulkchilik munosabatlarini va mulkdorlar manfaatini muhofaza qilishdan iborat bo'lgan maxsus guruhlar vujudga kelgan. Ibtidoiy jamiyatda oqsoqollar, urug' va qabila boshliqlari hamda diniy hokimiyat sohiblariga tegishli bo'lgan ijtimoiy hokimiyat asta-sekin davlat hokimiyatiga aylangan. Agar davlat paydo bo'lgunicha mavjud bo'lgan jamiyatda ijtimoiy hokimiyatni saqlashning asosiy vositasi oliy ruhoniylarning shaxsiy obro'si bo'lsa, davlat hokimiyatining mohiyatini majburlash tashkil eta boshlagan. Insonning jamiyatdagi mavqei o'zgargan. Oldin uning mavqei alohida shaxsning oilaga, urug'ga yoki qabilaga mansubligi bilan belgilansa, endilikda uning mavqei mulkiy holatiga va davlat hokimiyati egalariga shaxsiy yaqinligiga qarab belgilangan. Davlatning paydo bo'lishi turli xalqlarda turlicha yuz berdi. U o'zining shakllanishi va rivojlanishida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tgan.³⁵

Ibtidoiy davrlarda insonlar kichik jamoalarda yashagan, ishlab chiqarish vositalari umumiy bo'lgan. Tabaqalanish yo'q, hamma mehnat qilgan, jamiyatda sinflar va ekspluatatsiya mavjud bo'lmagan. Shu sababli davlatga ehtiyoj bo'lmagan. "Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi" asarining muallifi Engels davlatni jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni boshqarish, hukmron sinf manfaatlarini himoya qilish vositasi deb tushuntiradi. Uning fikricha, davlat- bu "ziddiyatlarni bostirish uchun tashkil etilgan kuch", ya'ni u u ekspluatatorlar sinfining qurolidir.³⁶

Xususan, quyida Engels nazariyasidan tashqari bir nechta nazariyalarda davlatning shakllanishi va rivojlanishidagi bosib o'tilgan yo'llarni ko'rish mumkin.

Teologik nazariya. Teologik (diniy) nazariya (yunoncha theos – xudo, logos – tushuncha, ta'limot, xudo to'g'risidagi ta'limotni anglatadi. Diniy ta'limotlar davlat va huquqning vujudga kelishi to'g'risidagi ilk ta'limotlardir. Davlatchilik va huquq shakllanishi bilan uni diniy, ilohiy tarzda tushunish yuzaga kelgan.

Avreliy Avgustin (354–430), Al-Mavardi (974–1058), Ibn Rushd (1126–1198), Foma Akvinskiy (1225–1274), Ibn Xaldun (1332–1406) kabi mutafakkirlar hamda yahudiylik, xristianlik va islom dini vakillari tomonidan davlat va huquqning kelib chiqishi diniy asosda tushuntiriladi. Ushbu nazariya vakillarining fikricha, butun olam, shu jumladan davlat va huquqning kelib chiqishi ham xudoning irodasi bilan bog'liq. Podsho va din vakillari xudoning irodasini ifodalovchilardir. Shuning uchun ham fuqarolar ularning amriga so'zsiz bo'ysunishlari lozim bo'ladi.

³⁵ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat>

³⁶ https://prezi.com/p/2_jhmm53qhca/fengelsning-oila-xususiy-mulk-va-davlatning-kelib-chiqishi-asarini-ijtimoiy-falsafiy-tahlili





Patriarxal nazariya. Mazkur nazariyaning asoschilari Aristotel, Aflotun va Konfutsiy hisoblanadi. Lekin ushbu nazariya XVII–XVIII asrlarda Genri Men, Mixaylovskiy kabi olimlarning asarlari orqali keng tarqaldi. Mazkur nazariya namoyandalarining fikricha, davlat oilaning rivojlanishi asosida vujudga kelgan. Ibtidoiy oilaga ota boshchilik qilib, keyinchalik davlat vujudga keladi va ota hokimiyati merosiy bo'ladi. Aflotun o'zining "Davlat" deb nomlangan mashhur asarida oiladan o'sib chiqqan yuksak adolatli davlatni tasvirlaydi. Unda podsho hokimiyati otaning o'z oila a'zolari ustidan hukmronligiga o'xshatiladi.

Ijtimoiy shartnoma nazariyasi. Mazkur nazariya XVII–XVIII asrlardan boshlab keng tarqalgan bo'lsada, u dastlab Ushbu nazariya vakillarining (J.Lokk, T.Gobbs, B.Spinoza, A.Radishcheyev, J.Russo, G.Grotsiy) fikricha, davlat hokimiyati kishilarning o'zaro birlashib ixtiyoriy shartlashganliklarining ifodasidir. Bunda davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro huquq va majburiyatlar tizimi vujudga kelib, o'z navbatida, ularda shartnoma majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun javobgarlik tug'iladi. Ushbu nazariyasi tabiiy huquq nazariyasi negizida vujudga kelgan. Rim huquqshunoslari fuqarolar huquqlari va xalqlar huquqlari bilan birga tabiiy huquqni ham ajratib ko'rsatgan.

Materialistik (sinfiy) nazariya. Ushbu nazariyaning asosiy qoidalari F.Engels ("Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi" asari) K.Marksning asarlari masalan, "Kapital"da ifodalangan. Ularning fikricha, davlat, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, birbirliga qarama-qarshi sinflarning yuzaga kelishi natijasida vujudga kelgan. Bunda davlat iqtisodiy va siyosiy jihatdan hukmron bo'lgan tabaqalarning quyi tabaqalarni bostirib turish vositasi sifatida maydonga chiqadi. Mazkur nazariyaga ko'ra murosasiz sinfiy qarama-qarshiliklar faqat muayyan tarixiy sharoitlardagina davlat vujudga kelishi sababi sifatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Shuningdek, umumiy ishlarni ado etish, jamiyatni boshqarishni takomillashtirish, mehnat taqsimotining bir shakli sifatida ushbu boshqaruvni ixtisoslashtirish zarurati davlatning vujudga kelishi sabablari sifatida keltirib o'tiladi.

Zo'ravonlik nazariyasi. Mazkur nazariya vakillari (Ye.Dyuring, L.Gumplovich, K.Kautskiy (XIX asr)) davlatning vujudga kelishiga harbiy-siyosiy omillar sabab bo'lgan deb hisoblaydi. Ya'ni zo'ravonlik nazariyasining asosida davlat va huquqni kelib chiqishining bosh sababi – bosqinchilik, zo'ravonlik va bir qabilani ikkinchi qabila tomonidan zulmga duchor etish degan g'oya yotadi. Bunda davlat bosib olingan hududlar (xalqlar)ni boshqarish uchun zo'rlov apparati vazifasini o'taydi. Ta'kidlash joizki, yevropadagi ayrim xalqlar, xususan, german qabilalari va vengerlarda davlatning kelib chiqishida aynan harbiysiyosiy omillar muhim rol o'ynagan.

Psixologik (ruhiy) nazariya. Mazkur nazariya XIX asrlarda yuzaga kelgan bo'lib, uning asosiy g'oyalari G.Tard, L.Petrajitskiy va boshqalarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Ularning fikricha, kishilarning ruhiyati jamiyatning, shu jumladan axloq, huquq, davlatning rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy omildir. Psixologik nazariya vakillari jamiyat va davlatni insonlarning ruhiy uyushmasi sifatida ham talqin etadilar. Unga ko'ra,





huquqning negizi bo'lib individual ong hisoblanadi. Ularning fikricha, davlat hokimiyati biror-bir kishining irodasi emas, balki fuqarolarning davlatga bog'liqligi to'g'risidagi ruhiy tasavvurlaridan kelib chiquvchi kuchdir.

Irrigatsion nazariya. Ushbu nazariyaning asosiy namoyandasi nemis olimi K.Vittfogel hisoblanadi. Uning fikricha, davlat Sharq xalqlarida yirik irrigatsion inshootlarini barpo etish zarurati asosida kelib chiqqan. Mesopatamiya, Misr, Hindiston kabi mamlakatlarda yirik irrigatsion qurilish ishlarini tashkil etish uchun kuchli, markazlashgan boshqaruv apparati tashkil etilgan. Mazkur nazariya vakillarining fikricha, geografik va iqlim omillari ham davlatning kelib chiqishiga ta'sir o'tkazadi. Shu bois noqulay bo'lgan shart-sharoitlarda qishloq xo'jaligini tashkil etish muammolarini hal etish Sharqdagi ayrim hududlarda davlatning kelib chiqish jarayonini tezlashtirgan.³⁷

Hozirda to'laonli shakllanib, rivojlanish bosqichiga o'tgan har bir davlat o'z o'tmishida xuddi shunday tarixiy yo'llarni bosib o'tgan. XXI asr davlatlari va dastlabki davrlardagi davlatlarni solishtirganda, bir qancha farqlarni ko'rish mumkin. Xususan, hozirda mavjud bo'lgan qonunchilik hujjatlari deyarli bo'lmagan, yoki mukammallik darajasi jamiyat saviyasiga ko'ra farqlangan. Ya'ni tarixdagi davlatlarda inson huquq hamda erkinliklari davlat tomonidan ta'minlab berilmagan, aksincha davlat mutlaqo ustunlikka ega bo'lgan. Hozirgi davlatlarni O'zbekiston misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.³⁸ Bu shuni anglatadiki, davlat faoliyati shaxs-jamiyat-davlat tamoyiliga asoslanadi. Ya'ni birinchi o'ringa shaxs manfaatlari, uning huquq hamda erkinliklari qo'yiladi. Bugunga kelib, davlat shunchaki majbur qilish kuchi, tartibni saqlovchi hokimiyat sifatida emas, o'zining aholisini har tomonlama himoya qila oladigan, davlatlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yadigan siyosiy tashkilot sifatida qaraladi. Dunyo rivojlanib borishi bilan undagi jamiyat a'zolarining nazariyalari ham zamon talabiga moslashib, o'zgarib bormoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida huquqiy demokratik davlat barpo etish yo'lida olib borilayotgan islohotlar davlat va huquq nazariyasining zamonaviy tamoyillariga asoslanmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy shartnoma nazariyasida ilgari surilgan xalq suvereniteti, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish g'oyalari O'zbekiston Konstitutsiyasida va davlat siyosatida o'z aksini topgan.

Bu boradagi eng muhim hujjatlardan biri —Taraqqiyot strategiyasi bo'lib, unda davlat boshqaruvi tizimini samarali, xalqparvar va ochiq qilish, inson manfaatlarini ustuvor qo'yish, qonun ustuvorligini ta'minlash kabi asosiy maqsadlar belgilangan. Mazkur strategiya zamonaviy davlat nazariyalarining amaliy ifodasi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Xususan, ushbu hujjatda,

barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;

³⁷ Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrir y.f.d., professor H.Boboyev. Darslik. –Toshkent: TDYU, 2020. -27-30 betlar.

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi





aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash, kabi vazifalar belgilab qo'yilgan.³⁹

Fuqarolik jamiyati institutlarining kuchaytirilishi va ijtimoiy adolatga asoslangan boshqaruv tizimi davlatning yangi modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa davlat haqidagi tarixiy va zamonaviy nazariyalarni o'rganishning nafaqat ilmiy, balki amaliy dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, davlatning kelib chiqishi muammosi insoniyat tafakkurining eng qadimiy va doimiy ravishda muhokama qilinib kelayotgan mavzularidan biridir. Har bir tarixiy davr va mafkuraviy oqim ushbu muammoni o'z sharoitidan kelib chiqqan holda turlicha izohlagan. Patriarxal, ijtimoiy shartnoma, zo'ravonlik, psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa nazariyalar davlatning qanday shakllangani to'g'risida muhim ilmiy xulosalarni ilgari surgan. Ushbu nazariyalar bir-biridan farqlanuvchi yondashuvlarga ega bo'lsa-da, ular davlat haqidagi umumiy tushunchaning chuqurlashuviga xizmat qilgan.

Zamonaviy davrda esa davlatga oid qarashlar yanada murakkablashib, faqat hukmronlik yoki tartibni saqlovchi tuzilma sifatidagina emas, balki inson huquqlari, ochiqlik, raqamlashtirish, fuqarolik jamiyati va global integratsiya bilan bog'liq hodisalar kontekstida qayta ko'rib chiqilmoqda. Globalizatsiya, raqamli texnologiyalar, ekologik inqirozlar va ijtimoiy tengsizlik kabi zamonaviy muammolar davlatning rolini yangicha talqin qilishni taqozo qilmoqda.

Shu bois, davlatning kelib chiqishiga oid nazariyalarni bugungi kunda ham yangicha ilmiy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirib tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy asoslar va zamonaviy ehtiyojlar asosida davlatning shakli, funksiyalari va mohiyatini tushunish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim hisoblanadi. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, davlat har doim jamiyat ehtiyojlarining mahsuli bo'lib kelgan va kelajakda ham shunday bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston davlati va huquq asoslari" darslik "Huquq va Jamiyat" nashriyoti Toshkent – 2019. 23-b.
2. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 69-70- betlar
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat>

³⁹ <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



4. https://prezi.com/p/2_jhmm53qhca/fengelsning-oila-xususi-mulk-va-davlatning-kelib-chiqishi-asarini-ijtimoiy-falsafiy-tahlili
5. Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrir y.f.d., professor H.Boboyev.
Darslik. –Toshkent: TDYU, 2020. -27-30 betlar.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
7. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>

